

«Gigiyena va atrof-muhit, epidemiologiya» kafedrası

1992-yili "Umumiy va ijtimoiy gigiyena, sogʻliqni saqlashni tashkil etish" kafedrası t.f.n. T.M. Tleumuratov rahbarligida tashkil etilgan.

1995-yilda "Mikrobiologiya va immunologiya" kafedrası bilan birlashib, "Mikrobiologiya, umumiy va ijtimoiy gigiyena, sogʻliqni saqlashni tashkil etish" nomi bilan ish olib borgan.

1997-yildan boshlab kafedrani t.f.d. A.Ya. Kenjaboyev boshqargan.

Bir necha yillar davomida kafedrada fan doktorlari, nomzodlar, assistentlar faoliyat koʻrsatmoqda.

Oʻsha yillari professor A.Ya. Kenjaboyevning "Ustyurt oʻchogʻi," "Qizilqum oʻchogʻi," "Qoraqalpogʻiston Respublikasida vabo profilaktikasi muammolari" T.I. Ismaylovning "Qoraqalpogʻiston Respublikasida sogʻliqni saqlash tizimining rivojlanishi," prof. B. Jolibekovning "Janubiy Orolboʻyi tuproq qoplami va landshaftlarining antropogen taʼsir tufayli oʻzgarishi" nomli monografiyalari chop etilgan.

Kafedra Sogʻliqni saqlash vazirligi, Suv muammolari instituti, Klinik va eksperimental tibbiyot, Qoraqalpogʻiston Ilmiy tadqiqot instituti, davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati Respublika markazi va tibbiyot kollejlari mutaxassisleri bilan hamkorlikda ish olib bormoqda.

Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi suv muammolari instituti laboratoriyasi boshligʻi E.I. Chembarisov bilan birga prof. L.G. Konstantinova, t.f.n. A. Madreimov, t.f.n. A.B. Qurbonov, t.f.n. K.M. Atanazarovlar muallifligi ostida "Qoraqalpogʻiston Respublikasida suvdan foydalanishning eng muhim muammolari va ichimlik suvi sifati" mavzusida va t.f.n. A.B. Qurbonov, t.f.n. A. Madreimov, b.f.n. S.M. Mambetullayeva, b.f.n. K.M. Atanazarov, №1 Nukus tibbiyot kolleji kafedra mudiri A. Ibragimova, **RMSEBO** bosh vrach oʻrinbosari G.T. Niyazova, V.K. Absattarova, ToshPTI NF kafedra assistenti N.N. Abdullinalar muallifligida "Qoraqalpogʻiston Respublikasida oʻtkir ichak infeksiyalarining tarqalganligi tahlili" nomli metodik ishlanma nashrdan chiqqan.



2006-2007 oʻquv yilida kafedra "Umumiy va ijtimoiy gigiyena, JSST, bolalar va oʻsmirlar gigiyenasi, tibbiyot sotsiologiyasi, tibbiyot tarixi va valeologiya" kafedrası etib qayta tashkil etildi. Kafedrani t.f.n, Qoraqalpogʻiston Respublikasi bosh sanitar shifokori A. Madreimov boshqarib, kafedrada assistentlardan D. Ataxanova, G. Ajiniyazova, O. Shelepova, Sh. Yunusova, K. Qoʻsiboyeva ishladi.

2008-yildan boshlab kafedra "Gigiyena, marketing va menejment" deb atala boshlandi.

Shu bilan birga professor-oʻqituvchilarning tarkibi ham oʻzgarib, assistentlar qatoriga G. Niyazova, V. Absattarova, A. Abdreyimov va D. Rustamovlar kelib

qo'shildi. Bu yillarda assistentlardan G.Niyazova va V.Absattarovalar tibbiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab chiqdi. Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha ilmiy maqolalar chop etildi.

Kafedramizning so'nggi yillardagi yutuqlariga 2009-2011 yillarga mo'ljallangan "Qoraqalpog'iston Respublikasida atrof-muhit ifloslanish darajasini va uning inson salomatligiga ta'sirini baholash" nomli granti bo'lib, bu bo'yicha ishlar rejada ko'rsatilgan vaqtda amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, kafedra mudiri A. Madreimov 2009-yil dekabr oyida "Orolbo'yi sharoitida o'tkir diareya kasalliklarini kamaytirishning epidemiologik jihatlarini" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shunday qilib kafedramiz filialimizning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga sezilarli darajada o'z hissasini qo'shib kelmoqda.



2011-2012 o'quv yilidan boshlab "Gigiyena, marketing va menejment" kafedrasini, 2012-2013 o'quv yilidan boshlab "Gigiyena va epidemiologiya" kafedrasini, 2014-yildan boshlab "Gigiyena va epidemiologiya" kafedrasini tarkibidan "Umumiy gigiyena" nomi bilan ajralib chiqdi. Toshkent davlat pedagogika instituti Nukus filiali 2014-yil 30-avgustda o'tkazilgan No1 Ilmiy kengash qarori bilan "Filial kafedralarining tarkibini optimallashtirish" bo'yicha qayta tashkil etildi.

2014-2024 yillar kafedra PhD. Kafedra Koreya Respublikasining Koryo universiteti bilan hamkorlikda "Atrof-muhit va salomatlik" mavzusida 2022-2028 yillarga mo'ljallangan loyiha bo'yicha ish olib bormoqda. Shu bois 2023 yil kafedra nomi "Gigiyena va atrof-muhit" deb qayta o'zgartirildi. Kafedraning ilmiy natijalari nashr etilgan 7 ta monografiya, 150 dan ortiq ilmiy maqola, 20 ta uslubiy ko'rsatmalarda o'z aksini topadi.

Kafedraning ilmiy xulosasi Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etib kelinmoqda.



2024-yil sentyabr oyida kafedra Epidemiologiya kafedrasini bilan qo'shildi va "Gigiyena va atrof-muhit, Epidemiologiya" kafedrasini bo'lib qayta tuzildi va kafedraga t.f.n Absattarova V.K rahbarlik qilib kelmoqda.

Kafedra professor-o'qituvchilar tarkibi

Kafedramizda professor-o'qituvchilardan kafedra mudiri Absattarova V.K, professor Madreimov A, professor Xans Moshxammer (Avstriya, Vena

universiteti), PhD.dotsent Ataxanova D.O., m.i.k.Niyazova G.T., PhD.Dauilbayeva K.K., assistentlar: Qoyanbayeva S.X, Kalliyeva T.A., Kurbaniyazov N.T, Zaydullayeva M.O., Orazimbetova A.T., Kadirbergenova S.J, Seyfullayeva G.A, Umbetov F.M, Shaniyazov A.J talabalarga ta'lim tarbiya berib kelyapti.